

INTERNET TARMOQLARI VA KOMPYUTER O'YINLARINIG BOLA RUHIYATIGA SALBIY TA'SIRI

*Surxondaryo viloyati Sherobod
tuman 51-maktab psixologi
Choriyev Norqul Qo'ziyevich*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ota-onalar va ularning farzand tarbiyasidagi kamchiliklari, hamda bolalarning internet tarmoqlari va kompyuter o'yinlariga qaramligining sabab va oqibatlari haqida keltirib o'tilgan

Kalit so'zlar: bola tarbiyasi, zamonaviy usul, internet tarmoqlari, o'ziga xoslik, zamonaviy, qobiliyat, texnologik, ilm-fan, tafakkur, iqtidor, motivatsiya.

Bugun hayotimizning barcha javhalarida axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining kirib kelgani hamda jadal rivojlanish yo'liga o'tgani jamyatimizga ham katta o'zgarishlar olib kirdi. Kompyuter haqiqatdan ham keng tarmoqli vazifalarni bajaradi: Radio va musiqa eshitish, filmlar ko'rish, matn terish, rasmlar ob'ektlar va animatsiyalar yaratish, telefon va kalkulyator vazifasini bajarish, global tarmoqlarga ulanish, kompyuter o'yinlarini o'ynash va hakoza. Axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida o'quvchilarga yetkazish qiyin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar mustaqil ravishda o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin bo'ladi. Shu sababli o'quvchilarning hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan dars mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, undan oqilona foydalanishda ularga yordam berish zaxur. Barcha shakllardagi darsda va maktabdan tashqari ishlarining chuqur ichki mohiyati o'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatga faol jalb qilish ularning tashabbusi va mustaqilligini rag'batlantirish, individual qiziqishlarini va qobiliyatlarini rivojlantirishdan ibortdir. O'quvchilarning o'qishdan tashqari ishlarga pedagogik rahbarlikning xususiyati ularga faqat dars mashg'ulotlarida emas, balki ijtimoiy tashkilotlar orqali, sinfdan va maktabdan tashqari har xil tadbirlar orqali amalga oshadi. Bugungi kunda katta extiyojga aylanib borayotgan narsa bu internet tarmoqlaridan samarali va unumli foydalanishni yoshlar ongiga singdirish, va bunda ota-ona hamda maktab o'qituvchilari hamkorlikda bolalarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilishga faqatgina zarurat bo'lsagina telefondan foydalanishlari mumkinligini ta'kidlab bolalar ongiga singdirib borish kerak. Bugungi kunga kelib o'sib kelayotgan yosh avlodni eng yaqin do'sti bu.. ming afsuslar bo'lsinki telefon, gadjet, planshet va televizorlarga aylanib qolmoqda. To'g'ri biz bolalarga bu narsalardan foydalanishni ta'qiqlab qo'yolmaymiz, lekin undan to'g'ri foydalanishni o'rgatmog'imiz lozim. Yoshlar

hozirda texnologik bilimlarini kattalardan ko'ra tez hamda samarali egallamoqda va aytish mumkinki, kompyuter texnologiyasi savodxonligi bo'yicha kattalardan ustunlik ham qilishadi. Ular ta'lim jarayoni va mashg'ulotlar vaqtida o'qtuvchi nazoratida internetdan asosan ilm-fan, madaniyat va sportga oid malumotlarni oladi, o'rganadi. Bular xursand bo'ladigan ijobiy holatlar. Darslardan chiqib dars vaqtida ololmagan biron bir qiziq malumot, video rolik va shu kabi axborotni hohlagan internet kafedan hech kimning nazoratisiz ham topishi uni yuklab olishi mumkin. Kompyuter o'yinlarining bazilari o'smirlar intellektining rivojlanishiga, qiyin sharoitlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalrining shakllanishiga, mantiqiy fikirlashning oshishiga, ijodiy, ruhiy rivojlanishiga yordam beradi. Lekin hozirgi kunda jamiyatni kompyuterlashtirishning ijobiy tomonlari bilan birga bolalar va o'smirlarni kompyuter, internet va asosiysi kompyuter o'yinlariga haddan ortiq bog'lanib qolish holatlari hamkuzatilmoqda. Bolalar va o'smirlarda kompyuter o'yinlariga psixologik tobeylik ko'rinishiga o'tib ketmoqda. Kompyuter o'yinlariga tobe bo'lib qolgan o'smir real hayotdan, zerikishdan, yolg'izlikdan, hayot qiyinchiliklaridan qochish maqsadida kompyuter o'yinlariga murojaat qilishni boshlaydi. "Psixologlarning ma'lumotlariga ko'ra, kompyuter o'yinlarini o'ynaydigan 10-15% insonlar ularga tobe bo'lib qolishar ekan. Tobelik asosida esa rohatlanishga nisbatan ehtiyoj yotadi. Mazkur tobelik har qanday yoshda paydo bo'lishi mumkin, biroq u o'smirlarda o'ta ta'sirli bo'ladi. Mutaxassislar tobelikning bunday turini o'ziga xos "Emotsional narkomaniya"ga taaluqli deb hisoblashadi. Kompyuterga tobelik og'ishgan xulq-atvor turlaridan biri hisoblanadi va u o'zining emotsional ruhiy kayfiyatini o'zgartirish usuli yordamida kundalik tashvishlardan qochishga intilish holati bilan ifodalanadi. Bunday paytlarda bolaning psixikasi tormozlanadi, individual shaxsiy rivojlanishdan to'xtaydi. Internet tarmoqlari va turli xil virtual o'yinlarga tobelikni ortib ketishining asosiy sabablaridan biri bolalarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri taqsimlanmasligi va ota-ona nazoratidan chetda qolib ketishi. Barcha tobiylik vositalari hattoki kompyuter o'yinlari ham ijobiy hissiyotlarni paydo qiladi (xursandchilik, baxtiyorlik, rohat, ruhiy va jismoniy yengillikni sezish) va salbiy hissiyotlarini (havotir, hafalik, aybdorlik hissi, o'zini yolg'iz his etish) bartaraf etadi. Bolalar kompyuterni bir necha marta o'ynagandan so'ng kompyuter qahromoni va undagi virtual olam, unung real hayotidagi qondirilmagan ehtiyojini qondirishga imkon berayotkanini tushunadilar. Bu kompyuter qahromonini hurmat qilishadi, uning fikrlariga qo'shilishadi, u kuchli, kuplab dushmanlari bir zumda yo'q qilib g'alaba qozona oladi. Bolalar uchun bu rolga kirish va o'zini "u" deb hisoblash yoqimlidir. Chunki ularning ko'pchiligi real hayotda o'zlarida bunday his-tuyg'uni his qilishlari qiyin.

Xulosa qilib aytganda bolalar hayotimizning mazmuni, eng muhim bo'lagi ekanini aytishdanni charchamasligimiz kerak. Albatta kompyuter va internet orqali begona insonlar masofadan farzandimiz psixologiyasini bilib olayotganini bo'lsayu,

nahotki biz ularni har kuni har soniya ko'rib, kuzatib yurgan, qo'lidan yetaklab katta qilayotkan ota-onasi bo'la turib ularning pok va beg'ubor qalblarini, orzu istaklarini va extiyojlarini anglay olmasak... degan savolni har birimiz o'zimizga berishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Abdusamedov. Mustahkam oila ma'naviyati. Toshkent – 2011.
2. D.I.Ahmedova, G.U.Solihova. Sog'lom avlod asoslari. Toshkent-2007.
3. M.G.Davletshin va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. Toshkent. TDPU .2004y.
4. E.G'oziev. Umumiy psixologiya. Toshkent "O'qituvchi" 2010 y.
5. M.G.Davletshin. Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiyasi. Toshkent. 1998